

**SOVET REJIMIGA QARSHI KURASH: MADAMINBEK VA
SHERMUHAMMADBEKNING SIYOSIY-HARBIY FAOLIYATI.**

Isaqova Mahliyo

Mirzo Ulug'bek nomidagi

*Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Tarix(mamlakatlar va yo'nalishlararo)
yo'nalishi 3-kurs talabasi.*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:11.05.2026

Revised: 12.05.2026

Accepted:13.05.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Madaminbek,
Shermuhammadbek,
mahram, kator,
bosmachilik harakati,
sovet hokimiyati,
kollektivlashtirish,
quloqlashtirish, O'rta
Osiyo, Farg'ona
vodiysi, milliy ozodlik
kurashi,*

Mazkur maqola XX asrning 20-yillarida O'rta Osiyoda sovet hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan qurolli harakatning yirik rahbarlari — Muhammadaminbek (Madaminbek) va Shermuhammadbek faoliyatini tarixiy nuqtai nazardan tahlil etishga bag'ishlangan. Maqolada quloqlashtirish va kollektivlashtirish siyosatining mintaqa aholisiga ta'siri, "bosmachilik" harakatining kelib chiqish sabablari, uning tashkiliy tuzilishi va mag'lubiyat sabablari yoritilgan.

Kirish. Tarix — millatning o'zligini anglash, o'tmishdan saboq chiqarish va kelajakni qurish uchun zarur bo'lgan ma'naviy zamindir. O'zbekiston mustaqilligining qaror topishi bilan birga milliy tarixni qayta ko'rib chiqish va sovet mafkurasi tomonidan ataylab buzib talqin etilgan voqealarni xolis baholash ilmiy zaruriyatga aylandi. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqib, mazkur maqola XX asrning 20-yillarida Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan qurolli harakatning ikki yirik rahbari — Muhammadaminbek (Madaminbek) va

Shermuhammadbek — faoliyatini tarixiy-tahliliy nuqtai nazardan o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu davr O‘rta Osiyo, xususan Turkiston o‘lkasi tarixi uchun alohida burilish nuqtasi bo‘ldi: chor Rossiyasi inqirozga uchragan, sovet tuzumi zo‘rluk bilan o‘rnatila boshlagan va mahalliy xalqning asriy urf-odatlarini, dini va turmush tarzi qattiq tazyiq ostiga olingan edi.

Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati (1918–1924) Turkiston xalqlarining milliy ozodlik uchun olib borgan muhim kurashlaridan biri hisoblanadi. Bu harakat sovet hokimiyatining o‘lkada zo‘ravonlik bilan o‘rnatilishi, mahalliy aholining manfaatlari e‘tiborga olinmasligi natijasida yuzaga keldi. Natijada siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy bosim kuchayib, xalq orasida qarshilik kayfiyati kuchaydi¹⁶.

Sovet davrida ushbu harakat “bosmachilik” deb talqin qilingan bo‘lsa-da, zamonaviy tadqiqotlarda uning asl mohiyati milliy-ozodlik kurashi ekanligi isbotlangan. Harakatda keng ijtimoiy qatlamlar ishtirok etib, unda dehqonlar, hunarmandlar, ziyolilar va diniy ulamolar faol qatnashgan. Ayniqsa jadidlar va milliy ziyolilar harakatni g‘oyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaganlar. Mavzuning tarixshunoslik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilishi shuni ko‘rsatadiki, sovet davri manbalarida Madaminbek va Shermuhammadbek «bosmachilar» — ya‘ni qaroqchi va mustamlakachi kuchlar qo‘g‘irchoqlari — sifatida bir tomonlama tasvirlangan. Bu talqin mafkuraviy zaruratdan kelib chiqqan bo‘lib, ilmiy obyektivlikdan yiroq edi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixshunosligi tubdan o‘zgardi: avval rad etilgan yoki siqib qo‘yilgan arxiv hujjatlari qayta ko‘rib chiqildi, yangi metodologik yondashuvlar qo‘llanila boshlandi¹⁷. Jumladan, yangi tarixshunoslik paradigmasi doirasida sovet davriga xos biryoqlama talqinlar ilmiy dalillar asosida inkor etilib, Madaminbekning siyosiy va harbiy faoliyati chuqur, xolis hamda har tomonlama tahlil qilinadi. XX asrning 20-yillarida Turkistonda yuz bergan milliy ozodlik harakatida Madaminbek va Shermuhammadbekning shaxsiy va ommaviy faoliyati, ularning harakat ichidagi o‘rnini tadqiq etish tarixshunoslikning dolzarb mavzulardan biridir.

Bizning o‘zbeklarda azaldan kimning qaysi avlodga mansubligini uning ismi sharifidan anglash mumkin, ya‘ni ismining oldi yoki orqasiga qo‘shilib keladigan qo‘chimcha uning avlodlari kimligidan dalolat beradi. Masalan, <xon> qo‘shimchasi ilgaridan to‘ralar yoki xo‘jalarga, <jon> qo‘shimchasi oddiy fuqaroga qo‘shib berilgan. Huddi shuningdek <Abdu> qul eshon ulamolar avlodini <bek> beklar avlodini bildirgan. Madaminbekning padari

¹⁶ Georgiy Safarov. Kolonial‘naya revolyutsiya (opyt Turkestana). Moskva, 1921. – B. 45 – 60.

¹⁷ Qahramon Rajabov. O‘zbekiston tarixi (XX asr boshlari). Toshkent: Fan nashriyoti, 2004. – B. 85 – 105.

buzrukvor Ahmadbek uzoq o'tmishdagi beklar avlodidan bo'lsa-da, ammo u juda qashshoqlashib qolgan edi. Marg'ilonliklar u o'rta bo'yli, to'lagina va chiroyli odam bo'lganini hikoya qilishadi. Ular Marg'ilondagi So'qchilik mahallasida, kenggina hovlili uyda yashashgan va asosan yog'och qoshiq, cho'mich yasab, ularni sotib, oilasini tebratib kelgan.

Oktyabr to'ntarishiga qadar har bir mahallada masjid bo'lgan edi. U ibodat maskanigina bo'lib qolmay, u yerda duolar o'qib tahsil olar, savod chiqarar edilar. Madaminbekning savodi ham ana shu diniy maktabda chiqdi. Qarindoshlari xotirlashicha, Madaminbek xiylagina sho'x bo'lgani bilan Qur'oni karimni yaxshi yodlar, chiroyli tilovat qilgani uchun uni ba'zan "Qori bola" deb ham chaqirishgan. Mumtoz adabiyotlar, jangnoma kitoblar Muhammadinbekning jon-dili bo'lgan. Ba'zan she'rlar to'qib, xirgoyi qilib yurgan. Ota-onasi o'z davrining anchayin savodli, mahallakuy, qarindosh-urug' davrasida obro'li kishilari edi. Ular o'z farzandlarining yaxshi tarbiya topishi, imon-e'tiqodli, insof-diyonatli bo'lib yetishishi uchun g'amxo'rlik qilishar edi. O'ta uzun kechalari Rustam doston, Siyovush qahramonliklari haqida, Amir Temur jangnomalaridan hikoyalar Madaminbekka juda hush yoqar, bolalik xayollarini uzoq-uzoqlarga olib ketardi¹⁸. Ahmadbekning besh farzandi bo'lib, Madaminbek ularning eng kenjasi edi. Madaminbekning Maqsudali va Mamadali ismli ikki akasi, Mehriniso va Mayramniso ismli ikki opasi bo'lgan¹⁹.

Madaminbek to'g'ri so'z, sofdil, do'stlariga sadoqatli yigit bo'lib yetishdi. Madaminbekning elkasiga ro'zg'or tashvishi erta tushdi. Otasining bozori kasod bo'lib, oila moddiy jihatdan og'ir ahvolga tushib qolgan, u ota-onasiga ko'mak berdi. Bir kuni, qip-qizil yuzli, ko'rkam yigitcha bozorda cho'mich va qoshiq sotayotganini ko'rgan Shahrixon amini uni xizmatga chaqirdi. U paytlarda boy amaldorlar uylariga ko'rkam yigitlarni mahram etib olib yurish rasm bo'lgan edi. Amin ham Ahmadbekdan shu o'g'lini mahramlikka berishini iltimos qildi. Ota yig'ilish bilan maslahatlashib, bu taklifga ko'ndi. Buning evaziga Ahmadbek har yili bir chorak qadoq bug'doy, bir chorak guruch olishi mumkin edi, bu esa oilaga katta dalda edi. Madaminbek Shahrixonida 5-6 oy bo'lgach, amining niyatlari xolis emasligiga fahmi yetib qoldi. Ba'zi ziyofatlarda yosh yigitlarni xuddi qizlardek bezatib, boyvachchalar ularning husni-jamolidan bahra olishar ko'rgan Madaminbek u yerdan ketib, Marg'ilondagi Yo'rmado'z mahallasida istiqomat qiluvchi Hoshim kavushdoznikiga boradi

¹⁸ Karimov I. "Madaminbek". Toshkent: Sharq, 2000. B – 21.

¹⁹ <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/qahramon-rajabov-biz-bilgan-va-bilmagan-madaminbek>

va unga shogird tushadi va bu niyatiga yetolmaydi va uyga qaytadi va turli yumushlarni bajarib, ro‘zg‘orga yordam beradi²⁰.

Margilonning Urdatagisidan tortib Uzunhovuzgacha cho‘zilgan shovqin-suronli bozorda u odamlar yukini tashib, tirikchiligini o‘tkazardi. Bu bozor nafaqat savdo markazi, balki ayni chog‘da sayrgoh va axborot almashinuvi maydoni vazifasini ham bajarardi. Asarda ta‘kidlanishicha: “Qo‘qon, Quva, Farg‘ona, Andijon, Namangan bozorlaridan har kuni savdogarlar kelib, turli shaharlardan xabarlar olib kelishardi.” Asta-sekin tijorat ishlari bilan shug‘ullanib, qo‘li pulga tegach, Madaminbek Qumrixon ismli qizga uylandi. Xushbichim, xushchaqchaq, odamshavanda va qo‘li ochiq Madaminbekning do‘stlari ko‘p edi. Bu xislatlar keyinchalik uning rahbar sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Madaminbekning hayotida keskin burilish nuqtasi Otaboy g‘ishtchining mahkami Mulla Sulaymon bilan bo‘lgan mojaro bilan boshlandi. Bu mojaro shaxsiy nizodan kelib chiqqan bo‘lsa-da, uning oqibatlari juda og‘ir bo‘ldi. Otaboy g‘ishtchi o‘ch olish maqsadida tintyv chog‘ida Madaminbeklar hovlisidagi makkapoya ichiga ro‘yxatga olinmagan miltiqni yashirib qo‘ydi. Natijada Madaminbek hibsga olindi.

1914-yilda chor Rossiyasi sudi tomonidan 14 yil katorgaga hukm qilinib, Nerchinskga jo‘natildi. Bu hukm nafaqat uning shaxsiy taqdiri, balki o‘sha davr mahalliy aholisiga nisbatan qo‘llanilgan chor mustamlakachilik siyosatining yaqqol ifodasi edi. Siyosiy jihatdan noqulay bo‘lgan mahalliy shaxslarni tuhmat va uydirma guvohliklar orqali yo‘q qilish chor ma‘muriyatining keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lgan.

Madaminbek Sibirda og‘ir sinovlarga duch keldi. U dastlab bahaybat bezorilar orasiga tushib qolib, milliy va diniy asosda masxaralashlarga, hatto jismoniy zo‘ravonliklarga duchor bo‘ldi. Biroq u bu sinovlarga bardosh berdi va asta-sekin o‘zini himoya qila bildi. Bora-bora bezorilarni ham o‘z atrofiga jipslashtirib, ularni tarbiyalashga muvaffaq bo‘ldi. Siyosiy mahbuslar bilan tanishib, dunyo voqealari, Birinchi jahon urushi, Nikolay hukumatining inqirozi haqidagi ma‘lumotlarni to‘pladi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, Madaminbek surg‘unda ham besh vaqt namozini qoldirmadi, ramazon oyida ro‘za tutdi va bo‘sh vaqtlarida o‘qib-o‘rgandi, hatto oz-moz frantsuz tilini o‘zganladi. 1917-yil erta bahorda Nikolay podsho taxtdan ag‘darilib, Vaqtli hukumat tuzilgani va surg‘undagilarga avf e‘lon qilingani haqidagi xabar unga ozodlik eshiklarini ochdi.

Ozod bo‘lgach, Madaminbek Sapiltudagi Yo‘lbarsxon eshon huzuriga bordi. Eshon uning halol-pokligi va mardligini bilgani uchun uni samimiy kutib oldi, moddiy va ma‘naviy

²⁰ Karimov I. “Madaminbek”. Toshkent: Sharq, 2000. B – 22-24.

yordam berdi. 1917-yil noyabr oyida Vaqtli hukumatning viloyat komissarlari tugatilib, xalq komissarlari Viloyat Sovetlari tuziladigan bo'ldi. 1918-yilda shahar dumalari tarqatilib, rus bolsheviklarining ishchi, soldat va dehqon Sovetlari hokimiyatni zo'rlik bilan qo'lga oldilar.

Asosan ruslardan iborat bo'lgan Turkiston Xalq Komissarlar Soveti 1917-yil dekabrda quyidagi mahalliy hokimiyat tuzilmalarini yaratdi: ma'muriy-fuqarolik; oziq-ovqat; yer ishlari; Qizil Gvardiya va militsiyani tashkil etuvchi harbiy va tashkiliy komissariat; moliya-soliq; sud; mehnatni muhofaza qilish komissariati. Bu tuzilmalar aslida mahalliy xalqning manfaatlarini emas, balki bolshevik hokimiyatining ustunligini ta'minlash uchun xizmat qilardi²¹.

Shunda el-yurt ichida adolat timsoli sifatida tanilub qolgan Madaminbekni shahar militsiyasi bo'limi boshlig'i vazifasiga shahar "Sho'roi Islomiy" tashkiloti va Abdurazzoq Siddiqov boshliq shahar inqilobiy qo'mitasi tavsiya etdi. Farg'ona viloyat harbiy Komissari K.Osipov Madaminbek bilan suhbatdan so'ng, uni militsiya boshlig'i lavozimida tasdiqlab, tegishli qurol-yarog' bilan ta'minladi. Madaminbek 1917-yil oxiri va 1918-yil boshidan boshlab Margilon uezdida tartib-intizom o'rnatish uchun jonbozlik ko'rsata boshladi. Biroq shu davrda uning raqibi — shahar militsiyasi boshlig'i Begijon — Madaminbekning obro'sidan norozi bo'lib, Mirodilboy va Madazim boshlik jinoiy guruhlarini uyushtirib, unga qarshi fitna ko'tardi. Natijada Madaminbek tomma-tom qochib ketishga majbur bo'ldi. 1918-yil boshlarida bosmachilar Chorcho'ri mahallasidagi hovlida Abdurazzoq zakunchini vahshiylarcha o'ldirishdi. Bu voqea butun shahar ahlini dahshatga soldi. Chunki Abdurazzoq 1916-yildagi chor hukumatiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirish vaqtida ko'pgina begunoh margilonliklarni nohaq jazodan saqlab qola olgan edi. Ahli Margilon nazarida u halol-poq, imonli, kambag'alparvar va elparvar odam sifatida mashhur edi.

Madaminbek bu holga befarq qaray olmadi. U Madazim boshlik bosqinchilarga to'satdan hujum qilib, ularni qurolsizlantirdi. So'roqda Abdurazzoq zakunchini Ishoq qo'ychi bo'g'izlagani va Madazim bu ishga boshchilik qilganligi aniqlandi. Madaminbek zahri zahar degan tamoyil asosida Madazimni Urdatagida, ko'p xaloyiq to'plangan joyda ottirib tashladi²².

Natijada Madaminbek xalq ko'z o'ngida adolat va haqiqat himoyachisiga aylanib qoldi. Arz-dodi bor odamlar to'g'ri uning oldiga madad so'rab kela boshladilar. Shu tariqa

²¹ R. Murtazayeva (va boshq.), O'zbekiston tarixi (oliy o'quv yurtlari uchun darslik), Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2010, B – 184.

²² Abdurahmonov M., "Madaminbekning rafiqasi (yoki Marg'ilonlik Saodatxon aya xotiralari)", "Yosh leninchi" gazetasi, 1990-yil, 11-aprel soni

margʻilonlik va toshloqlik jasur va adolatparvar yigitlar uning atrofiga toʻplana boshladilar. Asarlarda ushbu voqea Madaminbekning siyosiy yetilishidagi muhim bosqich sifatida talqin qilinadi. Abdurazzoq zakunchining qotillarini jazolash ishi Madaminbekni shaxsiy qasos izlayotgan inson emas, balki xalq adolatining kurashchisi sifatida gavdalandiradi. Bu davrga bagʻishlangan asarlar qahramonning qonuniy hokimiyat vakili va xalq himoyachisi boʻlgan ikki tomonlama rolini mohirona ochib beradi.

Madaminbek bilan birga yana bir yirik milliy siymo — Shermuhammadbek ham muhim oʻrin tutadi. Shermuhammadbek Fargʻona vodiysi va umuman Turkiston mintaqasida bolsheviklarga qarshi milliy kuchlarni birlashtirishda hal qiluvchi rol oʻynagan shaxs sifatida tarixga kirgan.

Shermuhammadbek va Madaminbekning yoʻllari bir nuqtada — Turkiston xalqining mustaqilligi va erkinligi uchun kurash maydonida kesishdi. Ikki siymoni birlashtirgan asosiy maqsad — chor Rossiyasi va soʻngra bolsheviklar tomonidan oʻrnatilgan mustamlaka zulmidan xalqni qutqarish, milliy davlatchilikni tiklash edi. Biroq ularning kurash metodlari va taktikalari baʻzan bir-biridan farq qilardi: Madaminbek koʻproq mahalliy tartib-intizomni oʻrnatish va xalq ichidagi adolatni himoya qilishga eʼtibor qaratar, Shermuhammadbek esa keng qamrovli harbiy va siyosiy tashkilotchilik ishlarini amalga oshirardi.

1917-yilgi inqilobdan keyin bolsheviklar Turkistonda hokimiyatni zoʻrlilik bilan qoʻlga kiritdilar. Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi, milliy ziyolilar va ulamo vakillarining qatagʻon qilinishi, dehqonlarning yer va mulkidan ayirilishi — bularning barchasi xalqda kuchli norozilik uygʻotdi. Ana shunday sharoitda Shermuhammadbek kabi shaxslarning siyosiy maydonga chiqishi tarixiy zaruriyat edi.

Shermuhammadbek (Koʻrshermat) Madaminbek qoʻshiniga qoʻshilib qizil armiya qoʻshinlariga qarshi kurashgan paytlarda hali miltiqni yaxshi ushlashni bilmagan tufayli janglarni birida miltiqni luqdoni orqaga qaytganda koʻziga tegadi va u koʻr boʻlib qoladi va shu sababli uni “Koʻrshermat” deb ham atashadi. Shermuhammadbekka Madaminbek koʻp muruvatlar koʻrsatadi dastlab uni oʻnboshi, keyin oʻziga oʻrinbosar qilib oladi. Hattoki, ular ulomolar guvohligida Quroni Karimni oʻrtaga qoʻyib bir-birlariga doim sodiq qolish, qiyomatli aka-uka boʻlishga ont ichgan edilar. Madaminbek vafot etishi bilan bogʻliq holatlar tarixshunoslikda turlicha talqin etilib, uning oʻlimi sabablari va sharoitlari yuzasidan bahsli fikrlar shakllandi. Xususan, sovet davrida yozilgan kitoblarda Madaminbek muzokara oʻtkazish uchun borgan chogʻida Shermuhammadbekning buyrugʻi bilan Xolxoʻja tomonidan sotqinlikda ayblanib otib tashlangani keltirilgan. Ingliz tarixchisi Glenda Frezer oʻzining «Bosmachilar» asarida «Madaminbek Shermuhammadbek oldiga tinchlik missiyasi uchun

jo'natildi. Shermuhammadbek Madaminni ayg'oqchi sifatida 14-may kuni otib tashlaydi», deb yozadi. Ammo bu fikrlar hech qanday dalilga ega emas. Turk tarixchisi Ali Bodomchi «Qo'rboshilar» asarida ta'kidlashicha, Madaminbekni Xolxo'ja o'ldirmagan. Madaminbek o'ldirilgan paytda Xolxo'ja jang maydonida bo'lgan. Ali Bodomchi Madaminbekni Shermuhammadbek o'ldirgan, degan fikmi ham rad etadi. U Madaminbekni o'ldirish ishini sho'rolar tashkil etganligini asosli dalillar bilan isbotlaydi. Bu ishni qizillarga sotilgan Soyib qori va Lutfulloh Mahdumlar amalga oshirganlar. Ali Bodomchining ta'kidlashicha, ular Madaminbekni o'ldirib, so'ng Buxoroga qochib ketganlar. Bu fikrni qotillaming o'zlari ham tasdiqlaganlar. Ayni paytda mazkur xulosa Shermuhammadbek yozib qoldirgan xotiralarga hamohangdir: «Muhammad Aminbekning o'lganini, - deb eslaydi Shermuhammadbek, - men kech eshitdim. Yorboboga qaytganimizdagina bu haqda xabar topdik. Jang paytida unga hech ko'zim tushmadi. Chunki biz hayot-mamot jangiga kirgan edik. Xolxo'ja Muhammad Aminbekni asir olgan paytda uni askarlaridan Soyib qori va Lutfulloh Mahdumga topshirgan edi. Bular uni o'ldirib Buxoroga qochdilar. Muhammad Aminbekning men yoki Xolxo'ja tomonidan o'ldirilgan degan fikrlar sho'rolar tomonidan bizga qarshi qilingan tashviqot edi. Xolxo'ja Muhammad Aminbekdan xafa edi. Chunki ikki yil avval Turkiston muxtoriyati vaqtida-mualliflar) u Xolxo'jani Marg'ilonga chaqirib, qurolsizlantirgandi. Buni hamma bilar edi. Men shaxsan Muhammad Aminbekning ruslar bilan qo'shilganiga achchiqlangan bo'lsam ham, avval buyuk ishlar qilgani uchun uni hurmat qilar edim. Uning o'limi meni juda parishon qildi. Agar u menga asir tushgan bo'lganida ham uni o'tmishidagi xizmatlari uchun Afg'onistonga jo'natar edim. Qotil ma'lum va bu voqeada hubhasiz ruslaming qo'li bor²³

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, XX asrning 20-yillarida Turkiston hududida yuzaga kelgan qurolli qarshilik harakati sovet davri tarixshunosligida talqin etilganidek tor ma'nodagi "bosmachilik" emas, balki murakkab ijtimoiy-siyosiy ildizlarga ega bo'lgan milliy-ozodlik harakati sifatida baholanishi lozim. Ushbu harakatning yuzaga kelishida sovet hokimiyatining zo'ravon siyosati, xususan, kollektivlashtirish va quloqlashtirish jarayonlari, mahalliy aholi manfaatlarining inkor etilishi hamda an'anaviy turmush tarziga ko'rsatilgan bosim muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Tadqiqot davomida Muhammadaminbek (Madaminbek) va Shermuhammadbek faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinib, ularning har biri mazkur harakatda o'ziga xos strategik va tashkiliy ro'l o'ynagani aniqlandi. Xususan, Madaminbekning dastlabki faoliyatida mahalliy tartib-intizomni tiklash, adolatni qaror toptirishga intilish ustuvor bo'lgan bo'lsa,

²³ Jo'rayev N., Karimov Sh., O'zbekiston tarixi, Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2011, B – 137-138.

keyinchalik u kengroq miqyosdagi siyosiy va harbiy kurash yetakchisiga aylangan. Shermuhammadbek esa ko'proq harbiy tashkilotchilik va turli guruhlarini yagona maqsad yo'lida birlashtirish qobiliyati bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, harakatning mag'lubiyatga uchrash sabablari ham kompleks xarakterga ega bo'lib, ular ichki kelishmovchiliklar, yagona markazlashgan boshqaruvning yetishmasligi, tashkiliy va moddiy resurslarning cheklanganligi, shuningdek, sovet hokimiyatining harbiy-siyosiy ustunligi bilan izohlanadi. Ayrim hollarda yetakchilar o'rtasidagi strategik tafovutlar ham umumiy harakat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Umuman olganda, mazkur maqola Turkiston hududidagi milliy ozodlik harakatini yangicha tarixiy yondashuv asosida talqin qilish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Madaminbek va Shermuhammadbek siymolari nafaqat o'z davrining harbiy yetakchilari, balki xalq erki va mustaqilligi yo'lida kurashgan tarixiy shaxslar sifatida alohida ilmiy tadqiqot va xolis bahoni talab etadi. Ularning faoliyatini chuqur o'rganish bugungi kunda milliy tarixni anglash, tarixiy xotirani tiklash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov M. Madaminbekning rafiqasi (yoki Marg'ilonlik Saodatxon aya xotiralari) // "Yosh leninchi" gazetasi. – 1990-yil 11-aprel.
2. Georgiy S. Kolonial'naya revolyutsiya (opyt Turkestana). Moskva: Gosizdat, 1921.
3. Jo'rayev N., Karimov Sh., O'zbekiston tarixi, Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2011.
4. Karimov I. Madaminbek. – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2000
5. Murtazayeva R. va boshqalar. O'zbekiston tarixi (oliy o'quv yurtlari uchun darslik). – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2010.
6. Qahramon R. O'zbekiston tarixi (XX asr boshlari). Toshkent: Fan nashriyoti, 2004. Internet resurslari
7. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/>.